

«OROL DENGIZINING QURISH OQIBATLARI VA HOZIRGI AHVOLI»

Óteev Quwanishbek Ordabay uli
Mirzamuratov Saparmurat Atamurat uli
Xojanov Sanjarbek Ótkirbay uli

Ajiniyoz nomidagi NDPI Tarix Fakulteti
“Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari” 2-A guruh talabalari

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Orol dengizi to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishimiz mumkin. Orol dengizining paydo bo'lish davridan boshlab uning qurish sabablari va quyiladigan irmoqlar to'g'risida ham bir qancha ma'lumotlar berib o'tilgan. Bundan tashqari maqola davvomiyligida Orol dengizining qurishi natijasida sodir bo'layotgan salbiy oqibatlar haqida tuxtalib o'tildi.*

Kalit so'zlar: *Orol fojiasi, Amudaryo, oqimlar va irmoqlar, BMT, yerning sho'rlanishi, paleontology*

KIRISH

Orol inqirozi - zamonamizning eng yirik ekologik fojialaridan biridir. Hozirda u yana bir bor dunyo hamjamiyati e'tibori markazida. Yaqinda BMT tomonidan Orolbo'yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo'yicha ko'p tomonlama sheriklik asosida trust fondi tuzilishi e'lon qilindi. Shu munosabat bilan o'tkazilgan taqdimot marosimida ishtirok etgan O'zbekiston delegatsiyasi tarkibida Oliy Majlis Senati Raisining birinchi o'rinbosari Sodiq Safoyev ham bor edi. U fondni tashkil etishdan ko'zlangan maqsad va uning faoliyat yo'nalishlari, O'zbekistonning Orol dengizi hududidagi vaziyatni barqarorlashtirish bo'yicha olib borayotgan sa'y-harakatlari haqida so'zlab berdi.

-Ma'lumki, halokat miqyosi Orolbo'yi va hatto Markaziy Osiyo mintaqasidan ham tashqariga chiqib, global muammoga aylandi. Bir avlod ko'z o'ngida butun dengiz yo'q bo'lib ketdi. Vaholanki, mazkur havza suv hajmi bo'yicha dunyodagi to'rtinchi yopiq ko'l hisoblanardi. Vaqt o'tib borishi suv havzasi qurishi kuzatildi.

Orol bo'yi qurishi sababli yuzaga kelayotgan ekologik muammolari haqida to'xtalib o'tadigan bo'lsak juda ko'p misollar keltirishimiz mumkin. Orol dengizi as Amudaryo va Sirdaryodan asosan suv olib keladi. So'ngi davrlarda Sirdaryo suvi suv omborlarini to'ldirishga va sug'orishga ishlatilishi sababli Orol dengiziga yetib bormaydigan bo'ldi. Amudaryo va uning katta-kichik irmoqlarida suv omborlari qurilib, ko'p miqdordagi suv kanallar orqali ekin dalalariga oqiza boshladi. Buning natijasida Zarafshon, Surxondaryo va Qashqadaryo Amudaryoga yetib bormaydigan bo'lib qoldi. Hozirgi vaqtda Amudaryo orqalu suv oladigan kanallarning umumiy uzunligi 170 ming km dan, suv omborlari soni 50 tadan oshib ketdi. Ularning suv sig'imi 16-17 mld kubokilometrdir.

Suv zahiralardan noo'rin foydalanish - Amudaryoning yuqori va o'rta oqimlaridagi hududlarda sizot suvlarining ko'tarilib, tuproqdagi namlik bug'lanishining ortishi va buning

natijasida tuproqlarning sho'rlanish miqdori ortishiga sabab bo'ldi. Orol bo'yi hududlarida esa sizot suvlari yuzasi pasayib, yer yuzasi sho'rxok tuproq bilan qoplanib boshladi. Orol dengizi suv sathining susayishi bilan qirg'oq chizig'i 100 km dan ortiqroq orqaga chekindi. Dengiz tubi o'rnida 4 mln gektardan ortiq maydonni egallagan yosh Orolqum cho'liga aylandu. Bularning oqibatida Amudaryo va Sirdaryo suvidan noo'rin foydalanish XX asr oxirida 3 mln dan ko'proq aholi yashaydigan hududda Orol fojiasi" deb atalgan global ekologik halokatni yuzaga keltirdi.

Orol dengizi o'rnida paydo bo'lgan Orolqum mayda tuz va tuproq zarrachalari bilan qoplangan. Shamol esganida tuz va tuproq zarrachalaridan iborat chang havoga ko'tarilib, uzoq masofalarga tarqaladi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda Qoraqalpog'iston Respublikasidagi sug'oriladigan maydonlarning har gektariga bir yil davomida 250 kg, ayrim hududlarda 500 kg gacha tuzli chang yog'iladi. Qurigan dengiz tubidan bir yil davomida 15 mln dan 75 mln tonnagacha chang ko'tarilishi mumkin. Tuzli chang to'fonlarning kengligi 40 km ga; uzunligi 400 km ga etadi. Tuzli chang Orolqumdan o'nlab, hatto yuzlab km masofaga tarqalib, tabiiy o'tloqlar, vohalardagi ekinlar, shaharlar va qishloqlar hududiga yog'iladi. Orol changi hatto Tyanshan va Pomir tog'lari cho'qqilaridagi muzliklarga ham etib borib, u yerdagi muzliklarning erishini tezlashtirgan.

Cho'llanish va sho'rlanishning tezlashuvi oqibatida so'nggi yillarda 50 ming gektarga yaqin ekin maydoni qishloq xo'jaligida foydalanishga yaroqsiz bo'lib qoldi. Noqulay ekologik vaziyat qishloq xo'jalik ekinlari hosilini va chorva mahsulotlari yetishtirishning keskin kamayishiga olib keldi. Orol dengizining quriy boshlashi iqlimga ham ta'sir qiladi, iqlim yanada kontinentallasib, qishqi harorat o'rtacha ikki gradusga pasaydi, yozgi harorat esa ikki gradusga ko'tarildi. Buning natijasida sovuq kunlar erta tushib, ekinlarning pishib etilishi kechika boshladi. Orol bo'yi hududida vujudga kelgan ekologik tanglik aholi salomatligiga ham ta'sir ko'rsata boshladi.

Aholi o'rtasida yurak-qon tomir, oshqozon-ichak, nafas olish organlari kasalliklari (o'pka sili, astma, bronxit) ko'paydi. Hududda kam-qonlik kasalligi 60 yillarga nisbatan deyarlik 20-marta oshganligi kuzatilgan. Ekologik tanglik Orol bo'yi tabiati, o'simliklar va hayvonot dunyosiga ham katta ziyon etkazdi. Suv zahiralarning kamayishi va sho'rlanishi natijasida yaylovlarda chorvaga oziq bo'ladigan o'simliklar turi va sifati kamayib, o'tloqlar maydoni deyarlik uch martaga qisqardi. Amudaryo va Sirdaryo suvining ozayishi suv toshqinlarining bo'lmasligi, daryolarning suv bosadigan qirg'oqlarida yastanib yotadigan to'qaylardagi xilma-xil o'simliklarning qurib, yo'q bo'lib ketishiga olib keldi. Ularning o'rnini qurg'oqchilikka chidamli yulg'un, shuvoq kabi cho'l o'simliklari egallamoqda. To'qaylarning yo'qolishi ko'plab o'simlik va hayvon turlarining qirilib ketishiga sabab bo'ldi. O'tgan 20 asrning ikkinchi yarmida Amudaryoning quyi qismidagi to'qaylarning buzilishi bilan bu joylardan yo'lbars, buxoro bug'usi yo'qolib ketdi. Janubiy Orol bo'yidagi 60 dan ziyod qushlardan 10 ga yaqin turi yo'qolib borayotgani va 42 turidan ortig'i, noyob turga aylanayotgani haqiqatdir. Sho'rlanishning tezlik bilan ortishi tufayli Orol dengizi tobora o'lik dengizga aylanib boryapti. Orol dengizi va Orol bo'yida suv havzalarda tarqalgan 28 tur

baliqlardan 12 turi, jumladan Amudaryo kurakburun, Orol mo'ylovdori yo'qolib ketayotgan va noyob turlarga kiritilgan.

OROL DENGIZINI QURISH SABABI QUYIDAGICHA:

O'tgan davrda Amudaryo Uzboy orqali Kaspiyga, To'rg'ay daryosi esa Orol dengiziga quyilgan. Orol dengizi 1573- yilgacha Kaspiy dengizi bilan bog'langan. Paleontolog olimlar Orol dengizi qirg'oqlaridan kit, akula va dengizda yashaydigan qizil baliq qoldiqlarini topishgan. 1850-yilda Rossiya buyurtmasi tufayli Shvesiyada yasalgan paroxod Orol dengiziga tushirilgandi. 1965-yilgacha Aralsk, Mo'ynoq, Xo'jayli, Chorjo'y o'rtasida yo'lovchi va yuk tashuvchi paroxedlar qatnagan. 20 asr o'rtalarida Orol bo'yida 10 ta baliq zavodi va baliq konservalash kombinati ishlab turgandi, Orol dengizidan yiliga 450 ming sentnergacha baliq ovlangan. 1981-yilda Amudaryoda kema va parom qatnovi to'xtatilib kelingan. Orol dengizining yuz km dan ko'proq ichkariga chekinishi sababli kemalar quruq qum ustida qolib ketdi. XX asr o'rtalarida Orol bo'yida umurtqali hayvonlarning 178 turi, o'simliklarning 1200 turi aniqlangan. Amudaryo qirg'oqlaridan yiliga 1 mln dan ziyod ondatra mo'ynasi tayyorlangan edi. O'tgan asrning 90-yillarga kelib, mo'yna tayyorlash butunlay tugatildi. Tuproqning kuchli sho'rlanishi oqibatida qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish bir necha marta kamayishiga olib keldi. Yerlarning sho'rlanishi, turar joylar, ma'muriy binolar va asfaltlangan yo'llarga katta ziyon keltirmoqda. 1986-yilda 78 % turar joylar foydalanishga yaroqsiz holga kelgandi. Grolning qurishi ichimlik suvlarni ifloslantirib, aholi o'rtasida kasallikni kuchayishiga olib keldi. Amudaryo va Sirdaryo suvidan foydalanishda yo'l quyilgan xatoliklar Orol bo'yida ekologik falokatni keltirib chiqargan.

Xulosa qilib aytganda, Orol dengizining yer yuzasida tutgan o'rni juda muhim ahamiyatga egadir. Biroq uning qurishi natijasida nafaqat odamlar salomatligi balki qishloq xo'jaligi, yer unumdorligi iqlim o'zgarishlariga ham katta salbiy ta'sirlar yuzaga kelmoqda. Bugungi kunda Orol qurishini oldini olish buyicha tegishli chora tadbirlar ko'rilyapti .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Orol_dengizi
2. <https://www.gazeta.uz/oz/2019/02/08/Orol-tarix/>
3. Mansur Usmonov "Orol fojiasi oqibatlari"
4. Islom Berdiyrov. Gulasal Yunusova. "Iqlim tadqiqotlari" asari